



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TALABA VA O‘QUVCHILARNING IJTIMOIIY FAOLLIGINI  
OSHIRISH MARKAZI**

**CENTER FOR INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS AND PUPILS UNDER THE  
MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

100095, Toshkent sh. Talabalar shaharchasi, Talabalar ko‘chasi, 70-uy. Tel: (998) 71 246-95-43, e-mail: mm.markaz@edu.uz,  
e-xat: mmmdevonxona@exat.uz

2023-yil 18-sentabr

1/03-100-son

**Oliy ta’lim muassasalari  
rektorlari va filiallar  
direktorlariga**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 7-sentabrdagi 3/15-52-1318-son xatiga asosan, 2023–2024-o‘quv yilining ikkinchi haftasida o‘tkaziladigan “Axborot va tyutorlik soati” mashg‘ulotlari materiallari ilovaga muvofiq yuborilmoqda.

Shu munosabat bilan, Sizdan mazkur hafta davomida o‘tkaziladigan “Axborot va tyutorlik soati” mashg‘ulotlarini **“Yangi O‘zbekiston yoshlari bugunimiz va istiqbolimiz poydevori”** mavzusida yuqori saviyada o‘tkazilishini ta’minlashingiz so‘raladi.

“Axborot va tyutorlik soati” 4 bosqichdan iborat bo‘ladi.

1-bosqich: (20 daqiqa) Axborotlardan xabardorlik va yangi huquqiy normativ hujjatlar bilan qisqacha tanishish. Bu bo‘yicha OTMda axborot matni dars o‘tiladigan kundan bir kun oldin tayyorlanadi.

2-bosqich: (20 daqiqa) “Axborot va tyutorlik soati” mavzusini yoritish. Jadval asosida birlashtirilgan OTM tomonidan tayyorlangan materiallar asosida o‘tkaziladi.

3-bosqich: (20 daqiqa) Talabalar bilan fazilatlar haqida suhbatlashish va turli illatlardan saqlanishga chorchash. Hadis, hikmatli so‘zlar va rivoyatlardan misollar keltirish lozim.

4-bosqich: (20 daqiqa) Badiiy adabiyotlar bilan tanishish. Bu bosqichda har oyda o‘qish uchun rejalashtirilgan kitoblar haqida ma’lumot berish.

Ilova: elektron shaklda

**Markaz direktori**



**R.Xudayberganov**